O'ZBEK TILI LUG'AT BOYLIGINING SHAKLLANISH MANBALARI(TUB SO'ZLAR VA O'ZLASHMALAR)

Mamatqulova Zuhra Turdali qizi
Andijon Davlat Chet tillari Insituti 106-guruh talabasi,
Ilmiy rahbar:**Yuldasheva Sadoqatoy**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tili lug‘at boyligining shakllanishi, tub so‘zlar va o‘zlashmalarning taraqqiyotdagi ahamiyati haqida. Shuningdek, tub va o‘zlashma so‘zlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning lug‘at tarkibidagi o‘rni hamda o‘zbek tilining rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’siri yoritiladi. Maqolada so‘zlarning kelib chiqishi, ma’no xususiyatlari va turli tillar bilan aloqalar natijasida lug‘at tarkibida yuz beradigan o‘zgarishlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: O’zbek tili, lug'at boyligi, tub so'zlar, o’zlashma so'zlar, til taraqqiyoti.

Kirish. Til xalqning tarixi, madaniyati va ma'naviy hayotini aks ettiruvchi muhim vositadir. Shuningdek, til insonlarning o'zaro muloqot qilishlari, fikr almashishlar va bir-birlarini tushinishlariga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biridir. Insonlar o'zaro muloqot jarayonida yangi so'zlarni o'rganadilar va bu so'zlar tilning lug'at tarkibini boyitishga xizmat qiladi.

Tilning eng muhim boyliklaridan biri uning lug'at tarkibi hisoblanadi. O'zbek tili lug'at tarkibi hisoblanadi. O'zbek tili lug'at tarkibiga turkiy qatlamiga mansub so'zlardan tashqari, fors-tojik va arab tillaridan o’zlashgan so'zlar ham kiradi. O'zbek tili uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakillanib, turli davrlarda boshqa tillar bilan o'zaro aloqalar natijasida boyib borgan.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi til lug'at boyligining shakllanish manbalarini va bunga xizmat qilgan omillarni o'rganish. Shuningdek, lug'at tarkibidagi tub va ozlashmalar so'zlarning xususiyatlarini yoritish, hamda ularning til taraqqiyotidagi ahamiyatini yoritib berish to'g'risida fikr yuritiladi.

Lug'at tarkibining rivojlanishi jamiyat hayotida yuz beradigan iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ilmiy o'zgarishlar bilan bog'liq. Yangi tushunchalarning paydo bo'lishi, ayrim so'zlarning iste'moldan chiqishiga sabab bo'ladi. Shu sababli ham lug'at tizimi doimiy ravishda rivojlanib boruvchi muhim qism hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi-

Ushbu tadqiqotda o'zbek tili lug'at boyligini o'rganish maqsadida tavsifiy, qiyosiy-tahliliy va tarixiy usullardan foydalaniladi. O'zbek til lug'at tarkibiga kirgan tub va o’zlashma so'zlar to'g'risida fikr yuritiladi.

Tadqiqotning yana bir muhim jihati so'zlarning kelib chiqishi va hozirgi til tizimida tutgan o'rnini aniqlashdan iborat. Bunda so'zlarning tarixiy ildizlari, qo'llanish usullari o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqiladi.

Shuningdek lug'at tarkibidagi o'zgarishlarning til me'yorlariga va so'zlardan foydalanish jarayoniga ta'sirini tushuntirish ham tadqiqotning muhim yo'nalishlaridan biridir.

Vazifalari: o'zbek tili lug'at boyligini shakllanish manbalarini izohlash, tub va o'zlashtirma so'zlarning xususiyatlarini o'rganish.

Tadqiqot metodlari

Ushbu tadqiqot tavsifiy(tub va o’zlashma so'zlarning xususiyatlarini tushuntirish), qiyosiy-tahliliy(tub va o’zlashma so'zlarni o'zaro taqqoslash), etimologik(so'zlarning kelib chiqishi va qaysi tildan o’zlashganini o'rganish), tarixiy(o'zbek tili lug'at boyligining tarixi davomida rivojlanishini tahlil qilish),

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

lug’aviy tahlil(lug'atlardan foydalanish, so'zlarning ma'nosini va kelib chiqishini o'rganish). Shuningdek, so'zlarning ma'nosini va kelib chiqishini aniqlashda izohli hamda etimologik lug'atlardan foydalaniladi.

Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida kuzatish va umumlashtirish metodlaridan ham foydalanish mumkin. Kuzatish metodi orqali o‘zbek tilida tub va o‘zlashma so‘zlarning kundalik nutqda, badiiy asarlarda hamda ilmiy matnlarda qo‘llanilishi o‘rganiladi. Bu metod so‘zlarning turli nutqiy vaziyatlarda qanday ishlatilishini aniqlashga yordam beradi.

Umumlashtirish metodi yordamida to‘plangan ma’lumotlar tahlil qilinib, tub va o‘zlashma so‘zlarning o‘zbek tili lug‘at boyligidagi o‘rni va ahamiyati haqida xulosalar chiqariladi. Olingan natijalar asosida ushbu so‘zlarning til taraqqiyotiga qo‘shadigan hissasi yoritiladi.

Mazkur metodlarning o‘zaro uyg‘un qo‘llanilishi mavzuni kengroq o‘rganish, so‘zlarning kelib chiqishi va ma’no xususiyatlarini aniqlash hamda o‘zbek tili lug‘at tarkibining shakllanish jarayonini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Natijalar va muhokama

1.O’zbek tili lug'at boyligini shakllanish manbalari.

O'zbek tili lug'at boyligining shakllanishi va rivojlanishi tilshunoslik fanning leksikologiya bo'limida o'rganiladi. Til insonlar o'rtasidagi muloqot vositasi bo'lib, jamiyat taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib boradi. Insonlarning o'zaro muloqoti, tarixiy jarayonlar hamda turli xalqlar bilan madaniy va iqtisodiy aloqalari tilning lug'at boyishiga ta'sir ko'rsatadi. O'zbek tili qadimgi turkiy tillar bilan bog'liq tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan. O'zbek tili lug'at boyligining shakllanishida xalqning urf-odatlari, turmush tarzi, madaniyati va boshqa xalqlar bilan aloqalari muhim o'rin tutadi. Tilning lug'at tarkibi doimiy ravishda yangi so'zlar bilan boyib boradi. Ushbu jarayon tilning ichki imkoniyatlari hamda boshqa tillardan so'z o'zlashtirish orqali amalga oshadi.

O'zbek tili lug'at boyligining shakllanish manbalari, asosan, ikki guruhga bo'linadi.

Ichki manbalar–tilning o'z imkoniyatlari asosida yangi so'zlarni hosil bo'lishi, shevalardagi ayrim so'zlarning adabiy tilga kirishi ichki manbalar deyiladi. Masalan, ish so'zidan ishchi, paxta so'zidan paxtakor.

Tashqi manbalar–fors-tojik, arab va boshqa tillar orqali o'zbek tili lug'at tarkibiga kirib kelgan so'zlar tashqi manbalar hisoblanadi. Masalan, kitob, ilm, maktab arab tilidan;daraxt, gul, xona fors-tojik tilidan.

2.Tub va o’zlashma so'zlar haqida ilmiy ma’lumot

1.Tub so'zlar. Tub so'zlar so'z yashovchi qismlarga ajratilmaydigan so’zlardir. Masalan, bosh, ko’z, qo'l, suv, yer, kabi so'zlar tub so'zlarga misol bo'ladi.

Tub so'zlar o'zbek tili lug'at tarkibining eng muhim qismlaridan biridir. Ularning ko'pchiligi turkiy tillarning tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liq. Tub so'zlarning muhim xusisyatlaridan biri shundaki, ulardan qo'shimchalar yordamida yangi so'zlar hosil qilish mumkin. Masalan, ish-tub so'z, ishchi va ishchan esa yasama so’zlardir. Bu jarayon o'zbek tilining so'z yasash imkoniyatlari keng ekanligini ko'rsatadi. Tub so'zlarni o'rganishda ularning tarixiy kelib chiqishiga ham e'tibor berish lozim.

Bundan tashqari, tub so‘zlar kundalik hayotda eng ko‘p qo‘llanadigan so‘zlar qatoriga kiradi. Ular inson, tabiat, oila, mehnat va turli faoliyatlarga oid tushunchalarni ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Masalan, ota, ona, bola, bosh, qo‘l, ko‘z, suv, yer, tosh va yo‘l kabi so‘zlar xalqning kundalik turmushida ko'p foydalanadigan so’zlardir.

Tub so‘zlarning yana bir xususiyati shundaki, ular boshqa so‘zlar bilan birikib, turli ma’nolarni ifodalashi mumkin. Masalan, bosh so‘zi boshqaruvchi, boshlanish yoki biror narsaning yuqori qismini anglatishi mumkin. Bu esa tub so‘zlarning ma’no imkoniyatlari kengligini ko‘rsatadi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Shuningdek, tub so‘zlar maqol, matal, ibora va badiiy asarlarda keng qo‘llanadi. Ularning bunday qo‘llanilishi xalqning dunyoqarashi, hayotiy tajribasi va milliy tafakkurini ifodalashga xizmat qiladi. Shu sababli tub so‘zlarni o‘rganish o‘zbek tilining leksik xususiyatlarini hamda milliy tilimizning o‘ziga xosligini chuqurroq anglash imkonini beradi.

2.O’zlashma so'zlar.

O’zlashma so'zlar boshqa tillardan tarixiy, madaniy, siyosiy va ilmiy aloqalar natijasida kirib kelgan so’zlardir. O'zbek tili lug'at tarkibida fors-tojik,arab, rus va ingiliz tillardan kirib kelgan so'zlar mavjud.

- **Arab tilidan; kitob, ilm, maktab, mualim.**
- **Fors-tojik tilidan; gul, daraxt, xona, do'st.**
- **Rus tili orqali; samalyot, traktor kabi sozlar.**
- **Ingiliz tilidan; marketing, menejer, onlayn kabi so'zlar.**

O’zlashma so'zlardan o'zbek tili lug'at boyligini kengaytirishga yordam beradi. Ular tilga kirgach, o'zbek tilining talaffuz va grammatik qoidalarga moslashishi yoki yangi so'z yasashda ishtirok etishi mumkin.

O‘zlashma so‘zlarning o‘zbek tili lug‘at tarkibida mavjudligi tilning boshqa xalqlar bilan doimiy aloqada rivojlanib kelganini ko‘rsatadi. Turli davrlarda yuz bergan savdo-sotiq, ilm-fan, ta’lim va madaniy munosabatlar natijasida o‘zbek tiliga ko‘plab yangi so‘zlar kirib kelgan. Bu jarayon tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytirib, yangi tushunchalarni nomlashga yordam bergan.

O‘zlashma so‘zlar o‘zbek tiliga kirib kelgandan so‘ng uning ichki qonuniyatlari asosida rivojlanishi mumkin. Ularning ayrimlari talaffuz va yozuv jihatidan o‘zbek tiliga moslashadi, boshqalari esa xalqaro atama sifatida o‘z shaklini saqlab qoladi. Vaqt o‘tishi bilan bunday so‘zlarning ma’nosi ham kengayishi yoki o‘zgarishi mumkin. Bu holat tilning doimiy harakatda bo‘ladigan, jamiyatdagi o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liq tizim ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zlashma so‘zlarni o‘rganishda ularning kelib chiqish tarixini, hozirgi ma’nosini va nutqda qo‘llanish xususiyatlarini aniqlash muhimdir. Chunki bir tildan boshqa tilga o‘tgan so‘z dastlabki ma’nosini to‘liq saqlab qolmasligi ham mumkin. Shuning uchun bunday so‘zlarni tahlil qilishda etimologik va izohli lug‘atlarga murojaat qilish, ularning turli matnlarda qanday ishlatilishini o‘rganish lozim.

Umuman olganda, o‘zlashma so‘zlar o‘zbek tilining lug‘at boyligini rivojlantiruvchi muhim omillardan biridir. Ularni ilmiy jihatdan o‘rganish til tarixini chuqurroq anglash, lug‘at tarkibidagi o‘zgarishlarni aniqlash va zamonaviy adabiy til me’yorlarini to‘g‘ri qo‘llashga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, tub va o’zlashma so'zlar o'zbek tili lug'at boyligining muhim qatlamlaridan biri hisoblanadi. Tub so'zlar tilning tarixiy asoslarini namoyon etsa, o’zlashma so'zlar boshqa xalqlar bilan olib borilgan aloqalarning tilga ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek, tub va o’zlashma so'zlarni o'rganish o'zbek tilining tarixiy taraqqiyotini, boshqa tillar bilan aloqalarini hamda lug'at tarkibining qanday shakllanganini chuqurroq anglashga yordam beradi. Bundan tashqari, lug'at tarkibini o'rganish tilning zamonaviy holatini baholash va uning rivojlanish yo'nalishlarini tushunishda ham muhim hisoblanadi. Tub so'zlarning saqlanib qolishi milliy tilning o'ziga xosligini namoyon etsa, o’zlashma so'zlar esa, uning boshqa tillar bilan munosabatini aks ettiradi. Ushbu ikki qatlamning o'zaro aloqasi tilning boyishi va ifoda imkoniyatlarining kengayishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. — Toshkent: Talqin, 2005.
3. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. — Toshkent: Fan, 1985.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. — Toshkent: Universitet, 2000–2009.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
6. Hojiyev A. *Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.* – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
7. Mengliyev B. R., Murodova R. G‘. *O‘zbek tilining izohli lug‘atlaridagi undov so‘zlarning etimologik tavsifi.* – Educational Research in Universal Sciences, 2023, 2(4), 249–259-betlar.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.